
MAHALLA-QADRIYATLAR MASKANI

1-sektor hududidagi Qiyqi mahalla fuqarolar yig'inida milliy-urf odatlar, an'analar va qadriyatlarni keng targ'ib etish maqsadida tuman Madaniyat bo'limi bilan hamkorlikda "Mahalla - qadriyatlar maskani" nomli musiqali dam olish tadbiri o'tkazildi.



Ushbu tadbir yurtimiz tinchligi, yoshlarni vatanparvarlik ruhda tarbiyalash, mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi aholining ko'ngilli dam olishlarini ta'minlash maqsadida tashkil etildi.

Tadbirda mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi kayvoniy onaxonlar, mahalla faollari, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila vakillari hamda yoshlar ishtirok etdilar.



Tuman Madaniyat bo'limining xushovoz xonandalari o'zlarining musiqali dasturlari bilan tadbir qatnashchilarini xushnud etdilar.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2021-01-13 11:14:37